



# TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH QO'LLANILADIGAN

## TA'LIM METODLARI

*Shukurov Xursan Gadoyevich, Norova Intizor Haqberdiyevna*

*Matematika fani o'qituvchilari, BuxMTI akademik litseyi*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lism samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim tizimida zamonaviy ta'lism metodlaridan foydalanish, o'quv jarayonida yakka tartibda, juftlikda, kichik guruqlar va jamoada ishlashni, ilg'or ta'lism metodlarini amaliyotga joriy qilish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuvlarga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Bilim, ko'nikma, ko'rgazmali ta'lism metodi, og'zaki ta'lism metodi, amaliy metod, metodika, metod.

Bugungi kunda ta'lism tizimida qo'llanilayotgan ta'lism metodlari xilma-xil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lism-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan birbiridan farqlanadi. Bu metodlarninig har biri muayyan ta'lism-tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo'lib, uning o'rniiga boshqa metodni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Shu sababli ta'lism metodlarining qaysi biridan qaysi maqsad uchun foydalanish ko'zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega. Bu masala avvalo ta'lism metodlarini ma'lum belgilariga ko'ra turlarga ajratib olish va ularning asosiy mazmunini aniqlashni talab qiladi. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lism metodlarini turlarga ajratish dolzarb masala hisoblanadi. Buni hal qilish uchun zamonaviy ta'lism metodlarining turlarga ajratish uchun zarur bo'lgan asosiy belgilarini aniqlab olish zarur. Bu belgilar: bajaradigan vazifasiga, ko'zda tutiladigan natijaga, ta'limiyl va tarbiyaviy maqsadlarga, pedagogik va psixologik yo'nalishlariga, ta'lism oluvchilarning yoshiga muvofiqligiga, ayrim fanlarni (ijtimoiy, tillar, tabiiy, aniq, amaliy va boshqa fanlarni) o'qitishga, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishga, o'zlashtirishni nazorat qilishga tegishli va boshqa belgilar hisoblanadi. Ta'lism metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan



maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi. Muayyan ta’lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan iborat bo‘lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta’lim metodini hosil qiladi. Savod o‘rgatish yo‘llari: oilada o‘rgatish, maktabda o‘rgatish, maktabgacha ta’lim muassasasida o‘rgatish, o‘qituvchi yordamida o‘rgatish, kitoblar, kompyuter, ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘rgatish yo‘llari kiradi. Shunga o‘xhash sanoqni, arifmetik amallarni o‘rgatishda ham yuqorida giga o‘xhash yo‘llardan foydalanish mumkin. Shu yo‘llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda har turli metodlar qo‘llaniladi. Biror metodni qo‘llashdagi harakatni amalga oshirish ko‘rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko‘rinishga aytildi. Harakatning kuzatiladigan o‘zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to‘xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtdaligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy mashg‘ulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy holatlar, ranglar, sirtlarning tekisligi yoki adir-budurligi o‘zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo‘lgan turli harakat ko‘rinishlarini tushunish mumkin. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlaridan foydalaniladi. Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish operatsiyalarining yoki yo‘llarining yig‘indisi deyish mumkin. Ushbu qo‘llanmada metod tushunchasini ta’lim tarbiya jarayoni bilan bog‘liq jihatlardan ko‘rib chiqiladi.

Metod o‘zi nima? Metod-(grekcha "Metodos" so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l, ahloq usuli ma‘nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo‘li, usuli yoki qiyofasi, shakli ko‘rinishi hisoblanadi. Ta’lim metodi- o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muntazam qo‘llaydigan, o‘quvchilarga o‘z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko‘nikmalarini egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta’lim berish maqsadiga erishish bo‘yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar o‘zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullar kiradi. Ta’lim metodlari ta’lim beruvchi ongida ma'lum bir yo‘nalishidagi faoliyatning umumlashma



loyihasi tarzida shakllangan bo‘ladi. Og‘zaki ta’lim metodi- hikoya,suhbat, bahs,munozara kabi ichki kichik uslublarni o‘z ichiga oladi va ta’lim oluvchiga eshitish orqali ta’lim egallash qobiliyatini o‘siradi. Ko‘rgazmali ta’lim metodi-namoyish qilish, foto va video lavhalar shaklida namoyish qilish kabi uslublardan tashkil topgan bo‘ladi, bunda o‘quvchi mavzuga oid material va ma'lumotni ko‘rib tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Amaliy metod- mashq bajarish,laboratoriya va amalda qo‘llash kabi uslublardan tashkil topgan bo‘ladi va o‘quvchi nazariyani amaliyotda sinab ko‘rib o‘z bilimini oshiradi. Uch bosqichli intervyu metodi- bunda o‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. "Pedagog" guruhi mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar beradi."Talaba" guruhi savol va topshiriqlarga javob beradi."Ekspert" guruhi ularni baholaydi. Ekspert 3 bo‘limga bo‘lib baholaydi.

1. Nimalar to‘g‘ri qilindi.
2. Nimalar noto‘g‘ri qilindi.
3. Qanday qilish kerak edi.

Bu metod o‘quvchilarga so‘rab-surishtirish, pedagogik muloqot olib borish, bilim va malakalarni tekshirish va baholashni o‘rgatadi. Dars uchun ajratilgan vaqtidan unumli foydalanib ko‘proq vaqtini o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashlariga zamin yaratadi. Nafaqat o‘quvchilarning dunyo qarashini kengaytiradi, balki olingan bilimni mutaxassis nazorati ostida amalda qo‘llash hamda amaliyot jarayonlarida o‘quvchilarni qiziqtirgan savollariga guruh bo‘lib birgalikda yechim topish imkonini yaratadi. Ta’lim sifatini ko‘taradi va o‘quvchilarning birgalikda hamjihat bo‘lib ishslash ko‘nikmasini shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O.U.Avlayev, S.N.Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva, "Ta’lim metodlari " o‘quv-uslubiy qo‘llanma, "Navro‘z" nashriyoti, Toshkent-2017.
2. Jumayev M.E va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi-T.:2003-yil
3. R.Ishmuxamedov, L.Abduqodirov, A.Pardayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. — T., 2008-yil.